XALQ DEPUTATLARI ANGREN SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 1 - avgust VI-48-50-10-148-K/22 Angren shahar hokimligi

Angren shahrida mahalliy budjetining 1-yarim yillik ijrosi hamda qo‘shimcha manbalardan foydalanish yo‘nalishlari, jumladan, mahalliy budjet daromadlarini oshirishning aniqlangan rezervlari to‘g‘risida.

Angren shahri bo‘yicha 2022 yilning 1-chorak Mahalliy budjeti soliq tushumi aniqlangan rejasi 20367,0 mln so‘m, bo‘lib, haqiqatda tushum 21431,0 mln so‘mni tashkil qildi va aniqlangan rejaga nisbatan 1064,0 mln so‘mga (105%) ortig‘i bilan bajarildi.

2-chorak Mahalliy budjeti soliq tushumi aniqlangan rejasi 20558,0 mln so‘m, bo‘lib, haqiqatda tushum 22446,0 mln so‘mni tashkil qildi va aniqlangan rejaga nisbatan 1887,0 mln so‘mga (109%) ortig‘i bilan bajarildi.

2022 yil yarim yillik ijrosi soliq tushumi aniqlangan rejasi 40925,0 mln so‘m, bo‘lib, haqiqatda tushum 43877,0 mln so‘mni tashkil qildi va aniqlangan rejaga nisbatan 2952,0 mln so‘mga (107%) ortig‘i bilan bajarildi.

2-chorakda soliq tushumlaridan chorak boshiga nisbatan 22,0 mln so‘mga belgilangan tushumdan ortiqcha to‘lov tushurilgan.

Mahalliy budjetning xarajatlar qismining yarim yillik (1-2-choraklar) uchun aniqlangan reja 116471,0 mln.so‘mni tashkil qilgan holda amaldagi kassa ijrosi 108675,0 mln.so‘m (93%) bajarilishi ta’minlangan

Jumladan, 1-guruh xarajatlari ya’ni ish xaqqi va unga tenglashtirilgan xarajatlarga 60828,0 mln.so‘m, 2-guruh xarajatlariga 11989,8 mln.so‘m va 4-guruh xarajatlariga 35857,0 mln so‘m mablag‘ xarajat qilindi.

2021 yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘i qismi 2038,8 mln.so‘mni tashkil etgan holda yarim yillik davr mobaynida jami 956,6 mln.so‘m shahar hokim farmoyishlariga asosan mablag‘lar ajratildi.

Angren shahar hokimligi tomonidan taqdim etilgan Angren shahar mahalliy budjetining 2022 yil yarim yillik ijrosi to‘g‘risidagi hisobotini ko‘rib chiqib, Angren shahar Xalq deputatlari Kengashi

QAROR QILADI:

1. Shahar moliya bo‘limi rahbari A.Djabbarovning mahalliy budjetining 2022 yil yarim yillik (1-2-chorak) ijrosi to‘g‘risidagi hisoboti tasdiqlansin.

2. 2022 yil yarim yillik (1-2-chorak) shahar mahalliy budjeti daromadlari 43877,0 mln.so‘m (1-chorak 21431,0 mln.so‘m, 2-chorak 22446,0 mln.so‘m) va mahalliy budjetning xarajatlar ijrosi esa 108675,7 mln.so‘m miqdorida ijro etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Shahar mahalliy budjetlarining ijrosi 2022 yilning 1-2-choraklari davomida 17-son shakl ma’lumotnoma-bildirishnomalarni inobatga olgan holda kiritilgan barcha o‘zgartirishlar kengash qarori bilan tasdiqlansin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish, shahar hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b Ya.Noraliev zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Angren shahar kengashi raisi o'rinbosari **E.ERGASHEV**

Xalq deputatlari Angren shahar
Kengashining
2022 yil 1 avgustdagi
VI-48-50-10-148-K/22-son qaroriga
1-ilova

Angren shahar budjetining 2022 yil qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish

Erkin qoldiq mablag‘lari

T/r	Ko‘rsatkichlar	1-chorak			
		Farmoyish raqami va sanasi	Ajratilgan mablag‘	Kassa	Qoldiq
1	"Obod mahalla" dasturi smeta xarajatlari uchun	32-10-148-F/22 06,05,22y	53,00	53,00	-
2	Yoshlar daftari kirtilgan fuqarolarni qo‘llab quvvatlash Jamg‘armasiga 1-3-choraklar yakuni bo‘yicha mahalliy budjetlari daromadining oshirib bajarilgan qismining **kamida** 15 **foizini** yo‘naltirish.	13-10-148-F/22 02.03.22y	305,80	305,80	-
3	Jamoatchilik fikri asosida shahar qo‘shimcha manbalarining **kamida 30 foizini** mablag‘ yo‘naltirish.	6-10-148-F/22 29.01.22y	611,00	611,00	-
4	Jigariston MFY xududini obodonlashtirish xarajatlari uchun	9-10-148-F/22 11.02.22y	135,60	128,80	6,80
5	Sport maktabi safar xarajatlari uchun	12-10-148-F/22 21.22y	13,00	13,00	-
6	3-sektor shatabini ta’mirlash ishlari uchun	22-10-148-F/22 17.03.22y	100,00	-	100,00
7	2/2 daxa 9,10-uylar fasad qismini ta’mirlashdan vujudga kelgan qarzdorlikni qoplash uchun	27-10-148-F/22	101,30	-	101,30
8	Shahar hokimligining davlat oldidagi boj to‘lovlarini to‘lash uchun	44-10-148-F/23 20,05,22y	23,00	23,00	-
	JAMI		**1 342,70**	**1 134,60**	**208,10**

1-chorak daromadlar rejasidan ortiq bajarilgan qismi

T/r	Ko‘rsatkichlar	1-chorak			
		Farmoyish raqami va sanasi	Ajratilgan mablag‘	Kassa	Qoldiq
1	Yoshlar daftari kirtilgan fuqarolarni qo‘llab quvvatlash Jamg‘armasiga 1-3-choraklar yakuni bo‘yicha mahalliy budjetlari daromadining oshirib bajarilgan qismining **kamida** 15 **foizini** yo‘naltirish.	42-10-148-F/22 20,05,22y	154,14	154,14	-
2	Jamoatchilik fikri asosida shahar qo‘shimcha manbalarining **kamida 30 foizini** mablag‘ yo‘naltirish.	30-10-148-F/22 29.04.22y	308,29	308,29	-
	JAMI		**462,43**	**462,43**	**-**